НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

O’ZBEK RAQS SAN’ATINING OLTIN SAHIFALARI: QUNDUZ MIRKARIMOVA 100 YOSHDA.

Rajabova Mohlaroy
“Xoreografiya jamoalari rahbari” 2-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: san’atshunoslik fanlar nomzodi
Dotsent Tashkenbayev Po‘lat

Annotatsiya:

Mazkur maqola O‘zbekiston xalq artisti, baletmeyster va pedagog Qunduz Mirkarimovaning hayoti hamda ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Unda san’atkorning o‘zbek raqs san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi, milliy xoreografiyaning oltin fondidan o‘rin olgan ijod namunalari, shuningdek, uning shogirdlari va xalqaro miqyosdagi faoliyati keng yoritiladi. Qunduz Mirkarimovaning 100 yilligi munosabati bilan uning milliy va jahon madaniyatidagi o‘rni hamda merosining ahamiyati qayta ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Qunduz Mirkarimova, o‘zbek raqsi, baletmeyster, pedagog, Bahor ansambli, Mukarrama Turg‘unboyeva, milliy raqs, xoreografiya, san’at, 100 yillik.

Аннотация.

В статье, посвящённой 100-летию выдающегося деятеля узбекского хореографического искусства Кундуз Миркаримовой, рассматриваются её жизненный и творческий путь, многогранная педагогическая и постановочная деятельность, а также значительный вклад в развитие и популяризацию узбекского национального танца. Особое внимание уделяется её роли в сохранении, художественной интерпретации и передаче традиций национальной хореографии последующим поколениям. В статье анализируются особенности творческого почерка Кундуз Миркаримовой, её хореографические постановки, исполнительская культура и педагогические

принципы. Отмечается значение её творческого наследия в формировании профессиональной узбекской хореографии и развитии современной сценической культуры. Творческий путь Кундуз Миркаримовой рассматривается как одна из ярких страниц истории и золотого фонда узбекского танцевального искусства.

Ключевые слова:

Кундуз Миркаримова, узбекское танцевальное искусство, национальный танец, хореография, узбекская хореография, балетмейстер, педагог, постановочная деятельность, национальные традиции, хореографическое наследие.

Abstract.

This article is dedicated to the 100th anniversary of Kunduz Mirkarimova, an outstanding figure in Uzbek choreographic art, and examines her life, creative career, pedagogical and choreographic activities, as well as her significant contribution to the development and promotion of Uzbek national dance. Particular attention is paid to her role in preserving, artistically interpreting, and transmitting the traditions of national choreography to future generations. The article analyzes the distinctive features of Kunduz Mirkarimova's artistic style, her choreographic productions, performance culture, and pedagogical principles. Her creative legacy is considered an important contribution to the formation of professional Uzbek choreography and the development of contemporary stage culture. Kunduz Mirkarimova's artistic journey represents one of the remarkable and valuable pages in the history and golden heritage of Uzbek dance art.

Keywords:

Kunduz Mirkarimova, Uzbek dance art, national dance, choreography, Uzbek choreography, choreographer, teacher, choreographic production, national traditions, choreographic heritage.

Raqs - insoniyat paydo bo‘lgan ilk davrlardayoq tug‘ilgan va san'atning eng qadimgi, keng tarqalgan va ommabop turlariga kiradi. Qadimdan inson hayotining muhim jabhalarida raqs alohida o‘rin tutgan. Ibtidoiy davrda insonlar tomonidan tabiat hodisalari (quyosh, suv, olov bilan bog‘liq) turli afsonaviy ko‘rinishlarda tushunilgan. Tabiat mo‘jizalari insonlarga yaxshilik yoki yomonlik keltiruvchi kuch sifatida tasawur qilingan. «Avesto», afsona hamda bitiklarda tabiat mo'jizalari jonli timsollarda tasvirlangani va ular pantomimaraqs shaklida ijro etilgani haqida aytib o‘tilgan. Insonlaming mehnat jarayonlari, hayvonlaming harakatlari, afsonaviy xarakterdagi harbiyvatanparvarlik ruhidagi raqslami ijro etishgan. Bunda tabiat kuchiga tayanganlar.

Ular o‘z fikrlarini bayon eta olmay omadli ov bo‘lishini so'rab yalinishgan, yomg‘ir yog'ishini, farzand ato etishini iltijo etganlar. Hozirgi davrgacha dunyoning ba'zi bir joylarida, masalan, Afrikada shunday raqslar saqlanib qolgan. Folklorshunoslar, sayohatchilar yozib qoldirganlari o‘sha davrdagi xalqning yashash tarzi, urfodatlari, aqidalari haqida so‘zlaydi. Olov oldida jamoa bo‘lib raqs tushishlar, insoniyat tarixining ibtidoiy jamoa davridagi tosh bitiklariga chizilgan rasmlardan ko'rsak bo‘ladi. Qadimgi dunyo va antik davr raqslari hozirgi zamon raqslaridan ancha farqlangan. Bular: harbiy, marosimiy, xalq sayllari, to'ylardir. Raqsga tushayotgan ijrochi musiqa ritmini oyoq va qoTlari bilan jonlantirgan. Keyinroq esa maxsus yog‘och sandaletlar, kastanetlar, zarbli urma va torli musiqa asboblaridan foydalana boshlashgan. Rim imperiyasining inqiroz davrida raqsga boTgan qiziqish so‘ngan. Lekin o‘rta asrlarga kelib raqs bayram, komediya tomoshalari, ko‘cha teatrlarining markazidan joy oldi. Raqslaming maqsadi bayram tomoshalariga kelgan mehmonlami hushnud qilmoq bo’lgan. Yangi maishiy raqslar

paydo bola boshladi va ular sekin-asta qirollar va oqsuyaklar saroyiga ko'chib, yangi ko‘rinishiga ega boTdi.

Ijtimoiy hayotimiz taraqqiy etgani sari boshqa san’at sohalari kabi raqs san'ati ham kundan-kunga boyib, uning xarakteri, mavzulari o'zgarib bordi. Mehnat raqslari esa yangicha talqinda, yangi hayotiy ehtiyoj sifatida, insonlarga ruhiy madad beruvchi, quvonch va rohat baxsh etuvchi raqslar ijro etila boshlandi. Masalan: o‘zbeklarda «Paxta», «Pilla», ruslarda «Ip yigiruvchi», ukrainlarda «Hosil bayrami», moldovanlarda «Uzum yig‘imi», koreyslarda «Baliqchilar» va hokazo raqslar shular jumlasidandir. Raqs san’atining mumtoz, lirik, qahramonlik, hazil-mutoyiba, folklor, mehnat va juda ko‘p turdagi raqslari saqlanib kelinmoqdaki, unda xalqning har bir davrga xos yashash tarzini aniq, ravshan ifodalanadi. Amir Temur davrida XIV-XV asrlarda Movarounnahr muhim madaniy markazga aylandi. Halq sayllari va bayramlarining uyushtirilishi natijasida ommaviy maydon raqslari paydo bo‘ldi va rivojlandi. Poytaxt hisoblanmish Samarqandning ko‘rkam bog‘larida saroy qabullari, bayram sayllari o‘tkazilgan, xalq raqs va o‘yinlari uyushtirilgan. Elchi Klavixo o‘z hotiralarida jozibali va go‘zal raqslarga ta’rif berilgan. 0 ‘zbek sahna raqs san'atining paydo bo‘lishida, uning ravnaq topishida, gullab-yashnab, butun dunyoga ko‘z-ko‘z qilishiga o‘z hissasini qo‘shgan, raqs san’atimizning buyuk daholari boTmish Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Yusufjon Qiziq Shakarjonov, Isohor Oqilov, Roziya Karimova va ulaming shogirdlarini eslab o‘tish joizdir. Ular o‘zbek xalq raqs san’atining xaqiqiy jonkuyarlari va fidoyilari boTganlar. Ulaming qilgan mashaqqatli mehnatlari o‘zbek raqs san’atining bebaho boyligi hisoblanadi. Ushbu boylikni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish ishi baletmeysterlaming ihtiyoridadir. 0 ‘zbek raqs san'atining meros raqslari majmuasiga kirgan «Munojot», «Rohat», «Tanovar», «Pilla», «Paxta», «Katta o‘yin» va boshqa raqslami biron-bir joyini o‘zgartirishga hech kimning haqqi yo‘q. Ushbu raqslami buzmasdan, ortiqcha elementlar qo‘shmasdan

butunligicha o‘rgatish kerak. Aks holda uslublar aralashib, o‘zbek milliy raqs san'atining ko‘p qirrali boyligiga katta putur yetkazadi.

Qunduz Mirkarimova mashhur raqqosa, baletmeyster va pedagog. U o‘zbek raqs san’ati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan san’atkorlardan biridir. O‘zbekiston xalq artisti (1966) “Xalqlar do‘stligi” ordeni, 1951-yilda “Mehnatda o‘rnak ko‘rsatganlik uchun” medali, 1994-yilda “Shuhrat” medali, 1997-yilda “Do‘stlik” ordeni, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi mukofot sovrindori, Ko‘plab respublika va xalqaro tanlov hamda festivallar g‘olibi. Qunduz Mirkarimova 1925-yil 8-mart kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1937–1941-yillarda O‘zbekiston Respublikasi balet bilim yurtida (hozirgi Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy bilim yurti) tahsil olgan. 1951-yilda Moskva katta teatri qoshidagi Moskva xoreografiya maktabini (hozirgi Moskva davlat xoreografiya akademiyasi) tamomlagan. 1943–1946-yillar – Yangiyo‘l musiqali drama va komediya teatrida raqqosa. 1946–1949-yillar – O‘zbek musiqali drama va komediya teatrida, Muqimiy nomidagi davlat musiqali teatrida raqqosa. 1951–1953-yillar – Davlat opera va balet teatrida, Alisher Navoiy nomidagi teatr sahnasida ijod qilgan. 1953–1956-yillar – O‘zbekiston davlat filarmoniyasida yakkaxon raqqosa sifatida faoliyat yuritgan. 1957–1967-yillar – “Bahor” ansamblida yakkaxon raqqosa va pedagog. 1979–1988-yillar – Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi O‘zbek xalq raqslari davlat ansamblining badiiy rahbari. 1964–1979-yillar hamda 1988-yildan keyin – O‘zbek xoreografiya bilim yurtida o‘qituvchi. 1996-yildan – professor sifatida yoshlarga saboq bergan.

Mirkarimova SSSRning ko‘plab shaharlarida va dunyo mamlakatlarida gastrollarda bo‘lgan. U ijodi bilan Fransiya, Yaponiya, Avstriya, Hindiston, Sudan, Liviya, Misr, Marokash, Jazoir, Tunis, Pokiston, Singapur, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Afg‘oniston, Vengriya, Ispaniya, AQSh va boshqa mamlakatlarda yurtimiz san’atini namoyish etgan. Qunduz Mirkarimova ko‘plab shogirdlar tarbiyalagan. Ular orasida Ma’mura Ergasheva, O‘g‘iloy Muhamedova, Tatyana

Fedyaeva, Malika Ahmedova, Ziyoda Madrahimova, Dilbar Yunusova, Gulchehra Foziljonova, Gulnora Saidova bor. Shuningdek, uning shogirdlaridan tojik millatiga mansub Zebo Aminzoda 1986-yilda SSSR xalq artisti unvonini olgan.

Qunduz Mirkarimovaning ijrosidagi raqslar samimiylik, nafislik va jozibadorlik bilan ajralib turadi. Harakatlaridagi sho‘xlik va jo‘shqinlik tomoshabinlarni o‘ziga maftun etgan. U ijro etgan mashhur raqslar orasida: “G‘ayratli qiz”, “Katta o‘yin”, “Xorazmcha raqs”, “Uyg‘urcha raqs”, “Rohat”, “Jonon”, “Nay navosi”, “Bahor tongi”, “Tanavor”, “Zang o‘yin”, “Pomircha raqs”, “Dildor”, “Gulrux”, “Gulnoz” va boshqa ko‘plab asarlar bor. Baletmeyster sifatida u mumtoz, xalq va zamonaviy raqslarni sahnalashtirib, o‘zbek xoreografiyasining oltin fondiga kirgan kompozitsiyalar yaratdi. Jumladan: “Xotira”, “Ona qalbi”, “Mustazod”, “Zang”, “O‘zbekiston qizlari”, “Navro‘z”, “Doira raqsi”, “Tanavor 2”, “Tanavor 3”, “Siynaxiroj”, “Surnay navosi”, “Ey sarvi ravon”, “O‘zbek miniatyurasi”, “Hamsa”, “Katta buxorcha” kabi ommaviy raqslar. “Nasri segoh”, “Savti munojot”, “Tog‘ qizi”, “Dilxiroj”, “O‘rik gullaganda”, “Nurxon”, “O‘yna, o‘yna Gulnora” kabi yakka raqslar.

Qunduz Mirkarimova o‘zbek raqs san’atining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin olgan. Uning ijodi, pedagogik faoliyati va sahnalashtirgan asarlari o‘zbek milliy xoreografiyasining bebaho merosiga aylangan.

Foydalanilgam adabiyotlar:

1. Миркаримова Кундуз — Большой Энциклопедический словарь (БЭС)“ (deadlink). 2014-yil 14-iyulda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2010-yil 7-sentyabr.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. „Скончалась народная артистка Узбекистана Кундуз Миркаримова, Новости Узбекистана“. 2019-yil 12-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2019-yil 12-iyun.

4. . M.AInlullayeva. Aktyorlik mahorati asoslari. T., 2013.
5. I I.Maxmudov. Aktyorlik mahorati. T., 2005.
6. I Maxmudov, H.Maxmudova. Rejissura asoslari. T. 2008 y.
7. It,Karimova. « 0 ‘zbek raqslari». T.: «Cho‘lpon» nashriyoti,